

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Tar.04.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

SEYTIMBETOV MINSIZBAY KAZAXBAEVICH

**JANUBIY OROL HUDUDIDA TEMIR YO‘LLAR QURILISHI TARIXI
(XIX asrning ikkinchi yarmidan- XXI asr boshigacha)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2026

UDK: 93 (575.172)

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of abstract of the doctor of science (DSc) dissertation

Seytimbetov Minsizbay Kazaxbaevich

Janubiy Orol hududida temir yo'llar qurilishi tarixi (XIX asrning ikkinchi yarmidan- XXI asr boshigacha).....3

Сейтимбетов Минсизбай Казахбаевич

История железнодорожного строительства в регионе Южного Приаралья (со второй половины XIX века до начала XXI века).....33

Seytimbetov Minsizbay Kazakbaevich

History of railway construction in the Southern Aral Sea region (from the second half of the 19th century to the beginning of the 21st century)65

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....70

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Tar.04.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

SEYTIMBETOV MINSIZBAY KAZAXBAEVICH

**JANUBIY OROL HUDUDIDA TEMIR YO‘LLAR QURILISHI TARIXI
(XIX asrning ikkinchi yarmidan- XXI asr boshigacha)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2026

Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.DSc.Tar257 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.karsu.uz) hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Urakov Dilshodbek Jamoliddinovich
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nurjanov Sabit Uzakbaevich
tarix fanlari doktori, professor

Gafforov Shokir Safarovich
tarix fanlari doktori, professor

Qabulov Eshbolta Atamuratovich
tarix fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Tar.04.04 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «18» VI soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230100, Nukus shahri, Sh.Abdirov ko'chasi, 1 uy, Qoraqalpoq davlat universiteti tarix fakulteti. Tel.: (99361) 223-60-49; Faks: (361) 223-60-49; e-mail: karsu.info@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (541 raqam bilan ro'yxatga olingan (Manzil: 230100, Nukus shahri, Sh.Abdirov ko'chasi, 1 uy, Qoraqalpoq davlat universiteti tarix fakulteti. Tel.: (99361) 223-60-49; Faks: (361) 223-60-49.

Dissertatsiya avtoreferati 2026- yil «26» V kuni tarqatildi.
(2026- yil «26» V dagi 11 raqamli reestr bayonnomasi)



M.A. Karlibaev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori, professor

H.M. Otegenov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent

B.A.Koshanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Globallashuv sharoitida Markaziy Osiyo mamlakatlarining integratsion jarayonlarga va xalqaro dasturlarda ishtirokini kengaytirish faqatgina tarixiy zaruriyat bo'lib qolmasdan, shu bilan birga barqarorlikning muhim garovidir. Bugungi kunda mamlakatlar o'rtasida o'zaro iqtisodiy aloqalarni yanada rivojlantirishda temir yo'llar tarmoqlarining o'rni beqiyos. Shu jihatdan xalqaro tashkilotlar tizimni yanada takomillashtirish borasida yangi loyihalarni taqdim etmoqda. Bu esa temir yo'llar sohasi tarixiy ildizlarini chuqur tahlil etishni taqozo etadi.

Jahon miqyosida O'zbekiston tarixini ajralmas qismi bo'lgan qoraqalpoqlar tarixini ko'plab jihatlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, tarixiy kommunikatsiya tarmoqlarini paydo bo'lishi va rivojlanishi, transport kommunikatsiyalari chorahalarida joylashgan infrastuktura tarmoqlarining O'rta Osiyoda temir yo'l qurilishining yo'nalishlarini ishlab chiqilishi, yangi yo'nalishlarini ochish uchun texnik-iqtisodiy asosnomalar tayyorlanishi jarayoni borasidagi tadqiqotlar e'tiborga molikdir. Xususan, Janubiy Orol hududiga ilmiy ekspeditsiyalar tashkil qilinishi, ekspeditsiya a'zolari, ilmiy xodimlar tomonidan tadqiq qilinishi, Orol dengizi va Amudaryodan transport maqsadda foydalanish, quruqlikdagi yo'llarni yaxshilash borasida amalga oshirilgan sa'y-harakatlarning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy ahvoriga ta'sirini o'rganish hamda uni xalqaro miqyosdagi ahamiyatini yoritishga qaratilgan ishlar olib borilmoqda.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda keng ko'lamda amalga oshirilgan islohotlar birinchi navbatda uning iqtisodiy salohiyatining ortishiga xizmat qilmoqda. Mazkur davrda Qoraqalpog'istonda ham respublikaning turli jabhalarini qamrab olgan islohotlar o'z samarasini bermoqda. Ayniqsa, yangi temir yo'l tarmoqlarining ishga tushirilishi va tarmoqdagi strukturaviy o'zgarishlar hududlar salohiyatining yanada o'sishiga imkon bermoqda. Binobarin, "Hozirgi vaqtda mamlakatimiz bo'yicha yuklarning 60 foizdan ziyodi, yo'lovchilarning esa 75 foizdan ortig'i temir yo'l transporti orqali manzillariga etkazilayotganini inobatga oladigan bo'lsak, ushbu soha iqtisodiyotimiz rivojida qanday muhim va katta mavqeni egallab turganini yanada chuqurroq his qilamiz"¹. Mazkur holat mintaqadagi temir yo'llarni qurilishi tarixi bilan bog'liq jarayonlarni chiqur ilmiy tahlil etishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 9-avgustdagi O'RQ-706-son "Transport haqida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevraldagi PF-5647-son "Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish choralari haqida"gi Farmoni, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi xizmati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil qilish, boshqarish va sarmoya bilan ta'minlashni yanada takomillashtirish choralari haqida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevraldagi PQ-4143-son "O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi xizmatini tashkil qilish haqida"gi

¹ Мирзиёев Ш.М. «Ўзбекистон темир йўллари» акциядорлик жамияти жамоасига // <https://president.uz/uz/lists/view/1922>

qarorlari va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalari tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi².

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Janubiy Orol hududlarida temir yo‘llarning shakllanishi va rivojlanishi tarixiga oid tadqiqotlar dunyoning yetakchi oliy ta‘lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida, jumladan, Ayova davlat transport universiteti(Ayova, AQSH), York universiteti Temir yo‘l tadqiqotlari instituti(York, Angliya,) Fan va sanoat muzeyi(Liverpul, Angliya), Xalqaro temir yo‘llar uyushmasi (Parij, Fransiya Respublikasi), Rossiya ochiq transport akademiyasi(Moskva, Rossiya Federatsiyasi), Imperator Aleksandr I aloqa yo‘llari universiteti(Sankt-Peterburg, Rossiya Federatsiyasi), Toshkent davlat transport universiteti Temir yo‘llar transporti ilmiy-tadqiqot markazi(Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi) kabilarda olib borilmoqda.

Jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida temir yo‘llarning shakllanishi va rivojlanishi tarixi, xususan, Janubiy Orol hududlaridagi tarixiga doir quyidagi ilmiy natijalar olingan: temir yo‘l transporti sohasidagi xavfsizlikni yanada yaxshilash, temir yo‘l transporti tizimidagi turli operatsiyalari va infratuzilmalarini yanada yaxshilashga xizmat qiladigan amaliy yechimlar ishlab chiqilgan (Iowa State University Institute for Transportation, AQSH); muzey va uning kolleksiyalarini qiymati va ta‘sirini ko‘rsatadigan mavjud resurslar yaratilgan (University of York Institute of Railway Studies, Buyuk Britaniya); fan-texnika taraqqiyotida temir yo‘lning rolini ko‘rsatib beradigan tarixiy hujjatlar va rasmlarning elektron katalogi ishlab chiqilgan (Science and Industry Museum, Buyuk Britaniya); temir yo‘l tizimi faoliyatini barqaror rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or tajriba va tadqiqotlarni ommalashtirishga qaratilgan strategiyalar ishlab chiqilgan (International union of railway, Fransiya); temir yo‘l transportida yo‘lovchilarni tashishni tashkil qilishning asosiy tamoyillarini yanada rivojlantirish va bu borada ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘quv jarayoniga tatbiq qilish yuzasidan dasturlar joriy etilgan (Rossiyskiy universitet transporta, Rossiya Federatsiyasi); temir yo‘l transporti sohasida yangi infrastuktura obyektlarini qurish, ta‘mirlash hamda moddiy-texnik bazani rivojlantirish “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini tatbiq qilishga qaratilgan ilmiy va texnik ishlanmalar ishlab chiqilgan (Sankt-Peterburg, Rossiya Federatsiyasi); temir

² Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar sharhi <https://ctre.iastate.edu/about-ctre/>, <https://www.york.ac.uk/railway-studies/>, <https://www.scienceandindustrymuseum.org.uk/objects-and-stories/first-railways>, <https://uic.org/about/about-uic/#UIC-s-mission>, <https://www.miit.ru/science/scientific-schools#n21>, <https://www.pgups.ru/science/research/directory-of-scientific-research/>, <https://tstu.uz/department/35>, va boshqa manbalar asosida tayyorlandi.

yo‘l transporti sohasida axborotlarni qayta ishlash, hududlararo aloqalarni o‘zaro muvofiqlashtirish bo‘yicha ma‘lumotlar bazasi hamda ma‘lumotnomalarni qo‘llab-quvvatlash Rail-Info portali ishlab chiqilgan (Moskva, Rossiya Federatsiyasi), hududlarda temir yo‘l transporti tizimini rivojlantirish imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda soha xodimlari faoliyati natijalarini tijratlashtirishning samarali mexanizmlarini joriy etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan (Toshkent, O‘zbekiston).

Bugungi kunda dunyoning yirik ilmiy va strategik tadqiqot markazlari tomonidan XIX asrning ikkinchi yarmi – XX boshlarida Turkistonda, xususan, Janubiy Orol hududida temir yo‘llar qurilishi tarixini o‘rganishga doir qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: tarixiy kommunikatsiya tarmoqlarini paydo bo‘lishi va rivojlanishi, transport kommunikatsiyalari chorrahalarida joylashgan infrastuktura tarmoqlarining O‘rta Osiyoda temir yo‘l qurilishining yo‘nalishlarini ishlab chiqilishi, yangi yo‘nalishlarini ochish uchun texnik-iqtisodiy asosnomalar tayyorlanishi jarayoni, Janubiy Orol hududiga ilmiy ekspeditsiyalar tashkil qilinishi, ekspeditsiya a‘zolari, ilmiy xodimlar tomonidan tadqiq qilinishi, Orol dengizi va Amudaryodan transport maqsadda foydalanish, quruqlikdagi yo‘llarni yaxshilash borasida amalga oshirilgan sa‘y-harakatlarning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy ahvoriga ta‘sirini o‘rganish.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi³. Qoraqalpog‘istondagi transport tarixi etnograflar, iqtisodchilar, transport mutaxassisleri va tarixchilarda qiziqish uyg‘otdi. Transport tarixi bo‘yicha katta materiallar to‘plangan. Xususan, sovet yillarida olib borilgan tadqiqotlarda Qoraqalpog‘istonda temir yo‘l qurilishi, temir yo‘l qurilishida mahalliy aholining ishtiroki, o‘lkaga temir yo‘l bilan birga kommunikatsiya vositalarining kirib kelishi masalalariga ham e‘tibor qaratilgan.

Mustaqillik yillaridagi ilmiy izlanishlarda esa Orol bo‘yi yerlarida transport vositalarining shakllanishi, temir yo‘l transportining faoliyati bo‘yicha ko‘plab qimmatli tarixiy materiallar ilmiy muomalaga kiritilgan. Ularda transport vositalarining aholi turmush tarzi, o‘lka iqtisodiyotiga ta‘siri, qo‘shni hududlar bilan savdo munosabatlaridagi o‘rni kabi masalalar tahlil qilingan.

Xulosa qilib aytganda, Janubiy Orol yerlarida temir yo‘l qurilishi tarixi maxsus tadqiqot ob‘ekti sifatida o‘rganilmaganligini qayd etish joiz. Mazkur omillar o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan chuqur ilmiy va tarixiy faktlarga asoslangan tadqiqot ishini yaratish zarurligini ko‘rsatib turibdi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot ishi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat universitetida tasdiqlangan ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi XIX asrning ikkinchi yarmi XXI asr boshlarida Janubiy Orol mintaqasida temir yo‘l tarmoqlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishini ochib berishdan iborat.

³ Mavzuning ilmiy o‘rganilish tarixi dissertatsiyaning 1-bobida batafsil bayon qilingan.

Tadqiqotning vazifalari:

Mavzuning manbashunosligi va tarixshunosligini tahlil etish;

Rossiya imperiyasining Turkistonda temir yo‘llar qurilishi bo‘yicha olib borgan siyosatini yoritish;

Rossiya imperiyasi tomonidan Kaspiy - Orol temir yo‘lini qurish bo‘yicha loyihalash ishlarining olib borilishini tahlil etish;

Chorjo‘y-Qo‘ng‘irot temir yo‘li qurilishining loyihalashtirilishi va olib borilgan dastlabki sa‘y-harakatlarni tahlil etish;

Chorjo‘y-Qo‘ng‘irot temir yo‘li qurilishining amalga oshirilishini yoritish;

1960-1970-yillarda Janubiy Orol hududida temir yo‘llar qurilishining olib borilishini aniqlash;

Taxiatosh-Nukus-Chimboy temir yo‘lining qurilishining amalga oshirilishi va uning ahamiyatini ochib berish;

Mustaqillik yillari transport sohasida olib borilgan yangi siyosat va Janubiy Orol hududida temir yo‘llar qurilishini tahlil etish;

Respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy va strategik rivojlanishida temir yo‘l transportining tutgan o‘rnini yoritib berish;

mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘iston Respublikasida temir yo‘l transporti sohasida kadrlar tayyorlash ta‘limi tizimida o‘tkazilgan islohotlarni o‘rganishdan iborat.

Tadqiqotning ob‘ekti sifatida XIX asrning ikkinchi yarmidan – XXI asr boshigacha bo‘lgan davrdagi Janubiy Orol hududida temir yo‘l sohasi belgilangan.

Tadqiqotning predmetini Janubiy Orol hududida temir yo‘l transport tizimining paydo bo‘lishi va rivojlanishi, o‘rganilgan davrlardagi temir yo‘l transporti faoliyati, temir yo‘l infrastukturasining moddiy-texnik holati, soha uchun kadrlar tayyorlash va undagi o‘zgarishlar kabi jarayonlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada obyektivlik, xolislik, statistik kabi tadqiqot usullari, dialektik, tarixiylik va tizimli tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Rossiya imperiyasi tomonidan Orolbo‘yi mintaqasini o‘rganish maqsadida tashkil qilgan ilmiy ekspeditsiyalar natijasida qo‘lga kiritilgan xususiy shaxslar va aksionerlik jamiyatlari ishtirokidagi loyihalar ishlab chiqilishiga xizmat qilishi barobarida hududga kapitalizmni kirib kelishi yanada keng yo‘l ochgan temir yo‘l tarmog‘ini shakllantirishga asos bo‘lganligi dalillab berilgan;

zamonaviy Chorjo‘y-Qo‘ng‘irot va Qo‘ng‘irot-Beynov temir yo‘llari tizimining loyihalarini tayyorlashda general-gubernatorlik davrida imperiya mutaxassisleri va texnik intelligensiya tomonidan Markaziy Rossiyadan O‘rta Osiyoga temir yo‘l magistrallarni qurish bo‘yicha ishlab chiqqan loyihalari katta ahamiyatga ega bo‘lganligi dalillangan;

XX asr o‘rtalaridan boshlab Xorazm va Qoraqalpog‘istonning unumdor yerlarida paxta ekin maydonlarini kengaytirish dasturlarini amalga oshirish jarayonida Chorjo‘y-Qo‘ng‘irot, Qo‘ng‘irot-Beynov, Taxiatosh-Nukus va Nukus-Chimboy temiryo‘l tarmoqlarining qurilishi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini

tashishga ximat qilibgina qolmasdan, Rossiyaning markaziy magistral yo'llari tizimiga iqtisodiy jihatdan ulanishiga ham imkon berganligi yoritilgan;

mustaqillikning dastlabki yillaridan Ustyurt mintaqasi orqali o'tgan Chorjo'y-Qo'ng'iro't temir yo'lining davomi sifatida Qo'ng'iro't-Beynov magistrali, so'ngra Beynov-Maskat yo'nalishining ishga tushirilishi Qoraqalpog'istonning Osiyodan Yevropaga o'tgan tranzit yo'laklariga ulanishi barobarida mintaqaning xalqaro darajada iqtisodiy o'sishiga imkon yaratganligi isbotlangan;

mustaqillik yillarida Navoiy-Uchquduq-Miskin-Nukus temir yo'l magistralining yo'lga qo'yilishi hamda zaruriy infratuzilmaning shakllantirilishi, Qoratorov va Ustyurt tekisligidagi foydali qazilma boyliklarining samarali o'zlashtirilishiga xizmat qilganligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Qoraqalpog'iston yangi va eng yangi tarixining transport sohasidagi muhim voqealari ochib berilgan bo'lib, ushbu tizimning shakllanishida katta rol o'ynagan yetuk mutaxassis kadrlarning faoliyati bugungi kunda yoshlarning dunyoqarashi va ongida mehnatsevarlik, insonparvarlik hamda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish va milliy o'zligini rivojlantirishga yo'naltiradi;

Janubiy Orol hududida temir yo'l qurilishi bo'yicha XIX asrning ikkinchi yarmidan XXI asr boshlarida olib borilgan tadqiqotlar hamda ushbu tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan loyihalar, mintaqadagi transport tizimining rivojlanish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan materiallar tizimlashtirilgan;

XIX asrning ikkinchi yarmidan XXI asr boshlarida Qoraqalpog'iston hududidagi temir yo'l transporti faoliyati bilan bog'liq bo'lgan kamchilik va yutuqlar yoritilib, tegishli taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda tarix fanida tan olingan usul va yondashuvlarning qo'llanilganligi, temir yo'l tizimi faoliyatiga doir huquqiy-meyoriy hujjatlar, Rossiya Federatsiyasi va O'zbekiston Respublikasi arxiv materiallari, tarixiy adabiyotlar, aloqa korxonalarining rasmiy veb-saytlari, nashrlari kabi birlamchi manbalar, gazeta, jurnal, to'plamlarda e'lon qilingan maqolalar, aloqa sohasida faoliyat olib borgan xodimlarning xotiralariga asoslanganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, temir yo'l transport tizimini rivojlanishi tarixidagi muammolar echimiga oid tahliliy ma'lumotlar, chiqarilgan yakuniy xulosalar Qoraqalpog'iston hududidagi transport tizimining rivojlanish tarixi sohasidagi metodologik uslubiy yondashuvlarni rivojlantirish ushbu masalaga doir ilmiy xulosalarni amaliyotga joriy etishga asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ishda ilgari surilgan ilmiy fikrlar, takliflar, xulosalardan Qoraqalpog'iston respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha va transport sohasidagi dasturlarni ishlab chiqishda foydalanishga, Qoraqalpog'iston Respublikasidagi oliy ta'lim muassasalari, kasb-hunar maktablaridagi "Transport xizmati" yo'nalishlarida taxsil oladigan talabalar

uchun maxsus kurslar ishlab chiqish hamda tegishli o'quv dasturlari va qo'llanmalar, darsliklarning mazmunini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. XIX asrning ikkinchi yarmidan - XXI asr boshigacha Janubiy Orol hududida temir yo'llar qurilishi tarixi bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

Rossiya imperiyasining Orolbo'yi mintaqasida olib borgan ilmiy ekspeditsiyalar natijasida ishlab chiqilgan loyihalar mintaqaga xususiy shaxslar va aksionerlik jamiyatlari kapitalining kirib borishiga xizmat qiladigan temir yo'l tizimini shakllantirishdan iborat bo'lganligi bo'yicha natijalardan temir yo'l sohasidagi dasturlarni amalga oshirishda foydalanilgan ("O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati "Qo'ng'irot mintaqaviy temir yo'l uzeli"ning 2023 yil 6 oktyabrdagi 829-sonli ma'lumotnomasi). Natijalarni qo'llash Janubiy Orol hududida temir yo'llar qurilishi jarayoni va tarixi bo'yicha tasavvurlarni birlamchi manbalar asosida boyitish imkoniga xizmat qiladi;

Turkiston general-gubernatorligi davrida imperiya tadqiqotchilari va texnik intelligensiya tomonidan Markaziy Rossiyadan O'rta Osiyoga temiryo'l magistrallarni qurish bo'yicha ishlab chiqqan loyihalari zamonaviy Chorjo'y-Qo'ng'irot va Qo'ng'irot-Beynov temir yo'llari tizimining loyihalarini ishlab chiqishda ham katta ahamiyatga ega bo'lganligiga oid natijalardan transport sohasidagi turizm dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligining 2023 yil 21 noyabrdagi 02-13/04-885-sonli ma'lumotnomasi). Natijalarni qo'llanilishi tarixiy temir yo'llari bo'yab turistlar oqimini ko'paytirish imkonini beradi.

XX asr o'rtalaridan boshlab Xorazm va Qoraqalpog'istonning unumdor yerlarida paxta ekin maydonlarini kengaytirish dasturlarini amalga oshirish jarayonida Chorjo'y-Qo'ng'irot, Qo'ng'irot-Beynov, Taxiatosh-Nukus va Nukus-Chimboy temiryo'l tarmoqlarining qurilishi faqat agrar sohaga xizmat qilibgina qolmasdan, Rossiyaning markaziy magistral tarmoqlariga iqtisodiy jihatdan ulanishiga ham imkon berganligi Qoraqalpog'iston Respublikasi tarixi va madaniyati muzeyida ekskurs darslarni tashkil qilishda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniy meros boshqarmasining 2023-yil 4-oktyabrdagi 310-sonli ma'lumotnomasi). Natijalarni qo'llash muzeyga tashrif buyuruvchilarni ona vatanga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi;

mustaqillikning dastlabki yillaridan Ustyurt tekisligi orqali o'tgan Chorjo'y-Qo'ng'irot temir yo'lining davomi bo'lgan Qo'ng'irot-Beynov magistrali, so'ngra Beynov-Maskat yo'nalishining ishga tushirilishi Qoraqalpog'istonning Osiyodan Yevropaga o'tgan tranzit yo'laklariga ulanishi barobarida mintaqaning xalqaro darajada iqtisodiy o'sishiga imkon yaratganligi kabi yangi ma'lumotlardan Qoraqalpog'iston milliy teleradiokompaniyasining "Miyras" ko'rsatuvining ssenariysini ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi teleradiokompaniyasining 2023-yil 26-sentyabrdagi 05-22/477-sonli ma'lumotnomasi). Olingan natijalar tomoshabinlarga XIX asrning ikkinchi yarmidan - XXI asr boshigacha Janubiy Orol hududida temir yo'l transport

tizimining paydo bo'lishi va rivojlanish tarixi haqida ishonchli ma'lumotlarni etkazishga xizmat qilgan;

mustaqillik yillarida Navoiy-Uchquduq-Miskin-Nukus temir yo'l magistralining yo'lga qo'yilishi hamda zaruriy infratuzilmaning shakllantirilishi, Qoratorov va Ustyurt tekisligidagi foydali qazilma boyliklarining samarali o'zlashtirilishiga xizmat qilganligi bo'yicha xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Ijtimoiy-gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida bajarilayotgan ilmiy loyihada foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Ijtimoiy-gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2023-yil 10-oktyabrdagi 391/1-ma'lumotnomasi). Janubiy Orol hududida temir yo'llar qurilishi tarixi bo'yicha qarashlarni birlamchi manbalar asosida ilmiy xulosalar bilan boyitish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 12 ta respublika, 10 ta xalqaro ilmiy-amaliy va nazariy konferensiyalarda aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 51 ta ilmiy ish e'lon qilingan bo'lib, shundan 2 monografiya, 3 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 24 ta maqola, jumladan, 21 respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, besh bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishga o'rganilgan mavzuga bag'ishlangan jadvallar, fotosuratlar ilova qilingan. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 230 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslanib, ishning maqsadi va vazifalari, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, obyekt va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotga joriy qilinishi va aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Mavzuning nazariy-metodologik asoslari, manbashunosligi va tarixshunosligi**" deb nomlangan. Darhaqiqat, butun dunyo transport-kommunikatsiya tizimida temir yo'l transporti alohida o'rin egallaydi. Bu transport tarmog'ining samarali harakat qilishi mamlakatda amalga oshirilayotgan barcha iqtisodiy islohotlarga o'zining ta'sirini o'tkazadi. Respublikada mustaqil va yaxlit temir yo'l transporti tarmog'ining paydo qilingani uning barcha hududini samarali va ishonchli bog'lash bilan birga, xalqaro transport tarmoqlariga to'sqinliksiz chiqishini ta'minlaydi. Bu o'z-o'zidan amalga oshmadi. Uni teranroq anglash va temir yo'l transportining o'rnini va ahamiyatiga obyektiv baho berish uchun shunga mos xulosa qilinishi va bosib o'tilgan yo'lning chuqur tahlil qilish

zarur bo‘ladi. Bunda temir yo‘l qurilishining tarixini o‘rganish, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy hayotida uning o‘rnini aniqlash katta ahamiyatga ega.

Eng qadimgi va yirik sivilizatsiyalar yoki davlatlar qadimgi Sharqda daryo vodiylarida va O‘rta yer dengizi sohillarida paydo bo‘lgan. Ular o‘zlarining rivojlanishi uchun nafaqat unumdor yerlar, balki o‘z vaqtlari uchun kuchli transport, birinchi navbatda suv uchun ham qarzidor. Insoniyat jamiyatining keyingi rivojlanishida quruqlik transporti ham kam bo‘lmagan va ehtimol undan ham muhim rol o‘ynagan. Qadim zamonlarda ham aholi punktlari orasidagi eng muhim aloqalarda karvon yo‘llari paydo bo‘lgan.

Birinchi sanoat temir yo‘llari kelajakdagi jamoat temir yo‘l liniyalarining prototipi edi. Jamoat temir yo‘llarining paydo bo‘lishi sanoatning, birinchi navbatda tog‘-kon va metallurgiyaning rivojlanishi bilan bog‘liq edi. Shu bilan birga, savdo-sotiqning rivojlanishiga sabab bo‘lgan, aholining ishbilarmonlik aloqalarini kuchaytirgan mehnat taqsimoti va ayrim geografik jihatdan uzoq iqtisodiy hududlarning ixtisoslashuvi jarayonlari mavjud edi. O‘sha paytdagi temir yo‘llarning boshqa transport turlaridan iqtisodiy ustunligi xarajatlarning sezilarli darajada pasayishi, tovarlar va yo‘lovchilarni yetkazib berish tezligining sezilarli darajada oshishidan iborat bo‘lgan. Temir yo‘llar xalq ta‘limini rivojlantirishni, yangi ilmiy, texnik va texnologik yechimlarni izlashni rag‘batlantirdi.

XIX asrning o‘rtalarida Rossiyada temir yo‘llar qurish to‘liq sur‘at bilan amalga oshirildi va tez orada temir yo‘llar imperiya iqtisodiyotining tayanchi bo‘ldi. Masalan, temir yo‘llar yirik imperiyalarni ularning mustamlakalari bilan bog‘lashda muhim vositachilik rolini bajardi. Ushbu nuqtai-nazardan qaraganda, O‘rta Osiyoni Rossiya imperiyasi hududi bilan temir orqali bog‘lash imperiyaning manfaatlariga javob berdi, temir yo‘l qurilishi masalasi esa kun tartibidagi muhim masalalardan biri bo‘ldi⁴.

Sovet hukumati yillarida respublikada foydali qazilma boyliklar joylarining yangidan ochilishi, bu yerlarda yangi shaharlarning paydo bo‘lishi, qishloq xo‘jaligida yangidan yerlarning o‘zlashtirilishi, sanoat korxonalarining ko‘plab qurilishi Markaziy Osiyodan Rossiyaning markaziy hududlari tomon ikkinchi “transport yo‘lagini” ochish zaruriyatini, Volga bo‘ylari va Kavkaz o‘lkalariga chiqish imkoniyatini ta‘minlashni, shuningdek, yangi temir yo‘llar qurilishini amalga oshirishni taqozo etdi. Shu sababli bir nechta temir yo‘l yo‘nalishlari qurildi va foydalanishga berildi⁵. Bu temir yo‘l yo‘nalishlarining ochilishi O‘zbekiston va O‘rta Osiyoning boshqa respublikalariga Volga bo‘yi va Kavkaz respublikalariga chiqish imkonini berdi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab O‘zbekiston Respublikasi hukumati temir yo‘l tizimini rivojlantirish va takomillashtirish masalalariga alohida e‘tibor qaratdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan 1994-yili 7- noyabrda sobiq O‘rta Osiyo temir yo‘l bo‘limlari, korxonalari,

⁴ Раматов О. Железнодорожный транспорт / Том 8 – Ташкент: Государственное научное издательство, 2004. – 354 с.

⁵ Ахмеджанова З.К. Железнодорожное строительство в Средней Азии и Казахстане. – Ташкент, 1984. - 65 с.

tashkilotlari va muassasalari asosida “O‘zbekiston temir yo‘llari” davlat-aksionerlik temir yo‘l kompaniyasi tashkil etildi. Temir yo‘l transporti kommunikatsiyalarini rivojlantirish maqsadida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Temir yo‘l transportini monopoliyadan chiqarish tijoratlashtirish choralari haqida” 2001-yili 2- martdagi Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston temir yo‘llari” davlat-aksionerlik temir yo‘l kompaniyasini tashkillashtirishni bundan buyon ham takomillashtirish haqida” 2001-yil 3-martdagi qarori temir yo‘l tarmog‘ida islohotlarga keng yo‘l ochib berdi⁶.

Dissertatsiyaning manbaviy asoslari keng hajm va turli tuman xarakterga ega. Mavzu bo‘yicha O‘zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan hujjatlar muhim ahamiyat kasb etib, ular orasida quyidagi fondlarga alohida to‘xtalish lozim: 837-Fond (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Kengashining fondi), 608-Fond (O‘rta Osiyo temir yo‘l Boshqarmasi fondi), 2138-Fond (O‘zbekiston SSR Qishloq xo‘jaligi vazirligi fondi), 2454-Fond (O‘zbekiston Respublikasi Prezidiumining fondi).

Arxiv hujjatlari haqida so‘z ketganda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Markaziy Davlat arxivida saqlanayotgan manbaviy materiallarga e‘tibor qaratish lozim. Undagi ma‘lumotlar Chorjo‘y-Qo‘ng‘irot, Qo‘ng‘irot-Beynov, Taxiatosh-Nukus temir yo‘llarining qurilishi bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib borishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Ularning orasida quyidagi fondlardan qimmatli materiallar olindi: 322-Fond (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining fondi), 282 –Fond (Bosh Turkman kanali Boshqarmasining fondi). Ular orasida ko‘pgina hujjatlar hozirga qadar ilmiy muomalaga kiritilmaganligini ta‘kidlash lozim.

Rossiya Xalq Xo‘jaligi Markaziy Davlat arxivida O‘rta Osiyoda temir yo‘l qurish masalasi bo‘yicha ko‘plab arxiv hujjatlari mavjudligini ham ta‘kidlash zarur. Ulardan 1884, 9583, 9595 raqamli fondga saqlanayotgan arxiv materiallari katta ahamiyatga ega. Tadqiqot jarayonida Rossiya Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo‘limida saqlangan materiallar, Moskva shahridagi Rossiya davlat kutubxonasi, Sankt-Peterburgdagi Saltikov-Shedrin nomidagi, Toshkent shahridagi Navoiy nomidagi kutubxonalardagi muhim materiallar va adabiyotlar manbaviy materiallar sifatida ilmiy tomondan tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida muallif «O‘zbekiston temir yo‘llari» aksionerlik jamiyatining Qo‘ng‘irot mintaqaviy uzeli joriy arxivi, shu erda tashkil qilingan muzey materiallarini o‘rgangan, temir yo‘l xo‘jaligi ishlab chiqarish xodimlari bilan suhbatlar olib borilib, markaziy va Qoraqalpog‘iston Respublikasida chop etilgan matbuot materiallaridan keng foydalangan.

Shuningdek, tadqiqot ishida o‘sha davrga oid tarixiy rasmlar, qurilish ishtirokchilarining xotiralaridan foydalanilib, bu qurilishning umumxalq

⁶ Коллективу государственного акционерного общества «Узбекистон темир йуллари» // Шавкат Мирзиёев. Согласие нашего народа является высшей оценкой нашей деятельности. 2-том. – Ташкент: «Узбекистон», 2018. – 431 с.

xarakterini ochib berishda, mavzu yuzasidan to‘plangan manbalarni solishtirib, qiyosiy tahlil etishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Hududning transport tizimini rivojlantirishga bag‘ishlab yozilgan tadqiqotlarni shartli ravishda quyidagi to‘rt guruhga bo‘lish mumkin: 1) Rossiya imperiyasi davrida yozilgan asarlar; 2) Sovet davri nashrlari; 3) Mustaqillik yillarida O‘zbekiston va Qoraqalpog‘istonda olib borilgan tadqiqotlar, 4)MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy mamlakatlarning tadqiqotchilarining asarlari.

Rus olimlari, tadqiqotchilari, sayyohlari yozib qoldirgan yozma ma’lumotlar podsho Rossiyasi istilosidan oldingi Janubiy Orol aholisining kundalik hayoti, xo‘jaligi, ijtimoiy va madaniy ahvoli haqida muhim manbalar hisoblanadi. O‘rta Osiyoda temir yo‘l qurilishi tarixi bo‘yicha ilmiy asarlarning chop etilishi o‘lkada kapitalistik munosabatlarning rivojlanishida temir yo‘l qurilishining ta’siri, mahalliy aholi orasida ishchi mutaxassislarining shakllanishi bilan bevosita bog‘liq bo‘ldi. O‘rta Osiyoda temir yo‘l transportining paydo bo‘lishi va rivojlanishi haqida XIX asrning 80-90-yillaridan boshlab dastlabki asarlar paydo bo‘la boshladi. Kaspiyorti temir yo‘lining qurilishi va uning iqtisodiy ahamiyati haqida eng birinchilardan bo‘lib I.Y. Vatslik⁷ va A.I. Rodzevichning⁸ asarlari e’lon qilindi.

Mustamlaka davrda chop etilgan asarlarda O‘rta Osiyoda temir yo‘l qurilishi tarixi masalasi bo‘yicha ko‘plab faktli materiallar to‘plandi, ilmiy muomalaga kiritishga harakatlar qilindi. Lekin bu asarlarda temir yo‘l qurilishi tarixi bir tomonlama tadqiq qilindi, bunda podsho Rossiyasining mustamlaka tartibi nuqtai-nazaridan, imperiyaning manfaatlariga mos tarzda ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi.

1920-yillari O‘rta Osiyoda jurnallar soni ko‘paya boshlagan edi. Masalan, “Военная мысль”, “Хлопковое дело”, “Народное хозяйство Средней Азии”, “Народное хозяйство Казахстана”, “Вестник ирригации” va boshqa jurnallarda O‘rta Osiyoni Rossiya bilan bog‘lovchi qisqa temir yo‘l Aleksandrov Gay-Chorjo‘y yo‘nalishining qurilishi masalasi bo‘yicha ko‘plab ilmiy maqolalar e’lon qilindi⁹.

Janubiy Orol hududidagi transport tarixi etnograflar, iqtisodchilar, transport mutaxassislari va tarixchilarda qiziqish paydo qildi. O‘rta Osiyo, shuning ichida Janubiy Orol hududida yo‘l munosabatlari va transport, jumladan, temir yo‘l transportining rivoji haqida 1950-yillari F. Zavarikin¹⁰, P.N.Chernov¹¹, Z.K. Axmedjanova¹², A.V. Aksenov¹³ ning ishlari chop etildi.

⁷ Вацлик И.Я. Закаспийская железная дорога, ее значение и будущность. – СПб, 1888.

⁸ Родзевич А.И. Очерк постройки Закаспийской военной железной дороги и ее значение для русско-среднеазиатской промышленности, и торговли. – СПб, 1891.

⁹ Морозова А.С. Библиографический указатель о ККАССР. – Турткуль, 1932.

¹⁰ Заварыкин Ф.И. Роль Закаспийский железной дороги в проникновении капитализма в Среднюю Азию. Учен.зап. Чарджуйского пединститута. Вып. 1-Чарджуй, 1956.

¹¹ Чернов П.Н. К истории строительства железной дороги Ташкент-Оренбург (Изв. Узбекского филиала Геогр. общ-ва СССР, т.2. – Ташкент, 1956.

¹² Ахмеджанова З.К. К истории формирования первых отрядов железнодорожного пролетариата в Средней Азии (Изв. АН. Узб. ССР: Серия общ. Наук. – Ташкент, 1958.

1970-1980-yillaridagi G.Z.Zaxritdinov¹⁴, A. Jabarovning¹⁵ nomzodlik dissertatsiyalarida O‘zbekiston, jumladan, Qoraqalpog‘istonda yo‘l munosabatlari va transportning holati, uning qurilishi, shuning ichida temir yo‘llarning qurilishi va uning ahamiyati iqtisodiy nuqtai nazardan bayon etiladi. Respublikada yo‘l munosabatlari va transportning rivojlanishi haqida S.M. Xodjayev¹⁶, A.Jabarov va L.Axmetovning¹⁷ asarlarida O‘zbekistonda, shuning ichida Qoraqalpog‘istonda transportning turli sohalarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi iqtisodiy nuqtai-nazardan bayon etiladi. Shunday qilib, sovet davrida e‘lon qilingan asarlarda O‘rta Osiyoda temir yo‘l qurilishi tarixi masalasi bo‘yicha ko‘plab faktlik materiallar to‘plandi, ilmiy muomalaga kiritishga harakat qilindi. Lekin bu asarlarda temir yo‘l qurilishi tarixi bir tomonlama tadqiq qilindi, e‘lon qilingan asarlarda mavzuga aloqador masalalar sovet mafkurasi talablari asosida bayon etilgani ko‘zga tashlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida jahon mamlakatlari bilan logistika, transport kommunikatsiya, integratsiya, alternativlik kommunikatsiya yo‘laklariga keng imkoniyatlari masalalari bo‘yicha quyidagi olimlarning asarlarida aytib o‘tilgan va transportning bu rivojlanish jarayoniga bag‘ishlangan muammoning ayrim tomonlari bayon etilganligini ham ta’kidlash lozim¹⁸.

Mashhur olim X.Esbergenovning “Ardaqli azamat”¹⁹ kitobida xalqimizning sevimli farzandi K. Nurmuxamedovning hayoti va faoliyati haqida so‘z yuritiladi. “O‘zbekistonning yangi tarixi”ning Qoraqalpog‘iston tarixiga aloqador bo‘limlarini yozishda akademik S.Kamalov va t.f.d. B.Koshanov ishtirok etdi.

¹³ Аксенов А.В. Строительство Оренбургско-Ташкентской железной дороги (1901-1905 гг) (Учен.зап. Оренбургского гос. пед. инс-та им. В.П.Чкалова-вып. 13-Серия историко-филологич. наук. – Оренбург, 1958.

¹⁴ Захритдинов Г.З. Развитие пассажирского транспорта Узбекистана. Автореф. дисс. канд. экон. наук. – Ташкент, 1972.

¹⁵ Жабаров А. Развитие транспорта Узбекской ССР (1961-1980 гг.) Автореф. дисс. канд. экон наук. – Киев, 1982.

¹⁶ Ходжаев С.М. Транспорт Узбекистана. – Ташкент, 1961.

¹⁷ Жабаров А., Ахметов Л. Транспортный комплекс Узбекистана в период развитого социализма. – Ташкент, 1982.

¹⁸ Ходжаев Б.А. Развитие транспортных коммуникаций стран Центральной Азии как фактор экономического восстановления Афганистана // Узбекистан и Центральная Азия. – 2008. – № 6. – С. 42-51; Шарофиддинов М.М. Об изучении транспортной системы Центральной Азии. Молодой ученый. [Электронный ресурс]. URL: <https://moluch.ru/archive/116/30326> (дата обращения: 23.09.2020); Мухсимова Д.Х. Перспективы развития региональной интеграции Центральной Азии на примере Ассоциации стран Юго-Восточной Азии (АСЕАН) // Экономика, предпринимательство и право. – 2015. – № 4. – с. 273-282; Зохидов А.А. Альтернативные транспортные коридоры в Центральной Азии: факторы, взаимозависимость и проблемы интеграции // Центральная Азия и Кавказ. – 2014. – № 1. – с. 167-177; Ульджабоев К.У. Экономическая реформа на железнодорожном транспорте. – Тошкент: Мехнат, 1999; Мирзаев Р.С. Геополитика нового шелкового пути – Москва, Известия, 2004; Карриева Я.К. Ўзбекистонни жаҳон бозорига чиқиши учун халқаро йўлақлардан самарали фойдаланишнинг логистика транспорт муаммолари. Иқтисод ф.д. дисс. автореферати. – Тошкент, 2004; Артиков Ж.Ю. Ўзбекистон Республикаси ташқи сийосати ва транскомуникация муаммолари. Сийосатшунослик ф.н. дисс. автореферати. – Тошкент, 2005; Ходжаев А. Развитие транспортных коммуникации инфраструктуры Центральной Азии как фактор экономического восстановления Афганистана // Узбекистан и Центральной Азия. 2008. № 6; Саматов Г.А., Акбаров И.Т., Карриева Я.К. Халқаро транспорт тизими: унинг ривожланиш истикболларини баҳолашнинг математик модели // Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси ЎзИА. - Тошкент, 2000. № 4; Сафаров Т. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Ўрта Осиё савдо йўллари. Тарих фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент: 2009.

¹⁹ Х.Есбергенов. Ардақлы азамат. – Нукус: «Қарақалпақстан», 2009.

“O‘zbekistonning yangi tarixi”ning ikkinchi kitobida Chorjo‘y-Qo‘ng‘irot temir yo‘l qurilishiga boshchilik qilgan Usmon Yusupov, Nawriz Japaqovlarning tashkiliy ishlardagi xizmatlari va Markazning olib borgan siyosati haqida yangi ma‘lumotlar²⁰ keltirib o‘tilgan.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, Qoraqalpog‘istondagi transport tarixi S.Kamalov, B.Koshanov va T.Ametovlar, A.Djumashv va S. Nurjanov²¹ va boshqalarning ilmiy ishlarida keng bayon qilingan.

Mustaqillik yillarida yozilgan «O‘zbekistonning yangi tarixi» va «Qaraqalpaqstanın jańa tariyxı. Qaraqalpaqstan XIX ásiridin ekinshi yarımınan XXI ásirge shekem» kabi fundamental asarlar²² va R.Balliyevaning qoraqalpoq xalqining an‘anaviy xo‘jalik yuritish tarixi etnografik tadqiqotlarida²³ transport sohasiga ham to‘xtalib o‘tilgan. Mavzu bo‘yicha atqoli davlat arboblari va mutaxassislarining asarlarida muhim ma‘lumotlar berilgan²⁴.

Shuningdek, to‘rtinchi guruhga kiritilgan tadqiqotlar O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosati va transkommunikatsiya, xalqaro transport tizimi, uning rivojlanish kelajagi va tranzit-transport imkoniyatlarining integratsiyasi, geoiqtisodiy va geosiyosiy integratsiya jarayonlariga bag‘ishlangan tadqiqotlardan hisoblanib, MDH mamlakatlari tadqiqotchilari ishlarida Markaziy Osiyo mamlakatlarning transport tizimlarini rivojlantirish masalalari keng o‘rganilgan²⁵. Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan Markaziy Osiyodagi siyosiy va iqtisodiy

²⁰ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. -Т., 2000, б.618.

²¹ Камалов С.К. Қарақалпақлардың халық болып қәлиплесиўи ҳәм оның мәмлекетлигиниң тарийхынан. Нөкис, 2001; Нуржанов С. Власть и каракалпакское общество: анализ факторов и взаимоотношений // Вестник ККО АН РУз. 2001. №1-2.; Мамбетов К. Матеке Жуманазаров. Нөкис, 1991; Кошанов Б.А., Аметов Т.А. Социально-экономическое положение Республики Каракалпакстан в первой половине 90-х годов XX века // Билим-образование. Алматы. 2010. № 6; Ўша муаллифлар. Обретение Каракалпакстаном независимости и суверенитета в составе Узбекистана // Вестник КО АН РУз. 2014. №3; Ўша муаллифлар. О развитии политическо-правовых процессов Каракалпакстана (на примере в 1989-1993 гг.) // Общественные науки в Узбекистане. Ташкент, 2014. №3-4; Ўша муаллифлар. Очерки новейшей истории Республики Каракалпакстан. – Нукус: Қарақалпақстан, 2015; Кошанов Б.А., Отегенов Х.М. Очерки истории Каракалпакстана. 1916-1991. – Нукус, 2021; Джумашев А., Нуржанов С., Уразова Л., Таджиева Р. Қарақалпақстан тарийхи (1991-2015 жыллар). - Н.: Илим, 2018 ва бошқалар.

²² Ўзбекистоннинг янги тарихи. 1-3- китоб. – Тошкент: Шарқ, 2000; Қарақалпақстанның жаңа тарийхи. Қарақалпақстан XIX әсирдин екинши ярымынан XXI әсирге шекем. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2003.

²³ Баллыева Р. Традиционное природопользование Каракалпакии. – Нукус: Қарақалпақстан, 1996; Ўша муаллиф. Этнокультурные особенности природопользования народов Приаралья (в конце XIX и начале XX века). – Москва, 2003; Ўша муаллиф. Проблемы природопользования в Каракалпакии в советский период и их последствия // Материалы научной конференции «Ломоносовские чтения». – Москва, 2002; Ўша муаллиф. Этнокультурные аспекты экологических проблем Приаралья // Актуальные проблемы современной науки. - №1. – Москва, 2002; Ўша муаллиф. Экологический кризис и проблемы изучения традиционного природопользования // Ўзбекистон география жамияти ахбороти. – Ташкент, 2008. 31-жилд.

²⁴ Айымбетов Қ. Халық даналығы. Өткен кунлерден елеслер. Қыйлы-қыйлы кыўалар. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1988; Жапаков Н. Еске тусириўлер. Илимий мийнетлери. – Нукус: Билим, 1990;

²⁵ Рунов И.Б. Бросок дракона или новое Путешествие на Запад. – Москва: IRU.ORG, 2008. – 56-57 с.; Бекмагамбетов М.М. Использование транзитно-транспортного потенциала стран Центральной Азии: вызовы и возможности. – Алматы, 2009. – 64 с.; Зойдов К.Х., Медков А.А. Формирование управленческих механизмов развития транзитной экономики стран Центральной Азии в условиях интеграции и нестабильности // Управление. – 2015. – № 3(19). – с. 39-47; Крапчина Л.Н. Тенденции геоэкономических и геополитических процессов в Центрально-Азиатском регионе постсоветского пространства // Экономические отношения. – 2018. – № 3. – с. 323-332; Шодипур Ю. История путей сообщения и транспорта Таджикистана во второй половине XIX – нач. XX вв. Автореф. дисс... канд. ист. наук. – Душанбе, 1992.

tendensiyalar, yangi yo‘llar, Trans-Osiyo ko‘prigi, katta transport va savdo masalalari bilan bir qatorda transport yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilish, Yevroosiyo qit‘asining tranzit salohiyati, shuning bilan birga hududlarni ulovchi dengiz yo‘llari imkoniyatlari o‘rganilgan²⁶.

Xulosa qilib aytganda bugunga qadar Vatan va xorij tarixshunosligida temir yo‘llar tarixi bilan bog‘liq ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, Janubiy Orol bo‘yidagi temir yo‘llar qurilishi tarixini to‘liq qamrab olgan maxsus tadqiqotlar olib borilmagan.

Ikkinchi bob **“Rossiya imperiyasining Turkistonda temir yo‘l transporti sohasida olib borgan siyosati (XIX asrning ikkinchi yarmidan- XX asrning boshigacha)”** deb nomlanib, bunda Rossiya imperiyasining Turkistonda temir yo‘llar qurilishi bo‘yicha olib borgan siyosati, Rossiya imperiyasi tomonidan Kaspiy- Orol temir yo‘lini qurish bo‘yicha loyihalash ishlarining olib borilishi tahlil etilgan. Turkistonni ishg‘ol etgandan so‘ng Rossiya imperiyasining hukmron toifasi metropoliyaning rivojlanayotgan sanoat talablari uchun o‘lkaning moddiy boyligini o‘zlashtirish va o‘lkani xomashyo qoldig‘iga aylantirish siyosatini bosh vazifa etib qo‘ydi. Bu vazifani amalga oshirishda, Turkiston va Rossiya o‘rtasida harbiy, siyosiy-administrativlik, savdo-iqtisodiy aloqalarni ta‘minlash uchun zarur transport infrastrukturasi bo‘lmasligi bosh muammo bo‘ldi. Ushbu nuqtai nazardan qaraganda temir yo‘l qurilishiga katta ahamiyat berildi.

XIX asrning 60-70-yillarida imperiyaning hukmron toifasi oldida Turkiston o‘lkasini o‘zlashtirishda eng bosh vazifalardan biri O‘rta Osiyo orqali temir yo‘l qurish masalasi bo‘ldi.

K. Kaufman o‘zining Rossiya yo‘l munosabatlari vaziri K. N. Posyetga 1874-yili 15-martda yozgan xatida Rossiya imperiyasining Turkistonda siyosiy va harbiy munosabatini kuchaytirish maqsadida temir yo‘llar tarmoqlarini qurish orqali Rossiyani o‘lka bilan bog‘lash juda zarurligini ta‘kidlab o‘tadi. 1876-yili yo‘l munosabatlari vaziri K. Posyet davlatning etakchi muhandislarga Chelyabinsk-Troitsk-Toshkent yo‘nalishida tadqiqot ishlarini olib borishni topshiradi.

1876-yili yozda Aloqa yo‘llari vazirligining muhandislari Dembitskiy, Golstrem va Sokolovskiy kelajak O‘rta Osiyo temir yo‘lining Yekaterinburgdan Chelyabu, Troitsk va To‘rg‘ay orqali Turkiston yo‘nalishi bo‘yicha 1461 verst qismida, shuningdek, Teka daryosining quyilishidan boshlab Orenburggacha 641 verst masofada to‘liq tadqiqot ishlarini yurgizdi.

Tadqiqot ishlarining natijalari Qirg‘iz dalasi orqali temir yo‘lni qurish va foydalanish mumkin ekanligini va shu tariqa matbuotda e‘lon qilingan suvsiz cho‘lu biyobonlar haqida fikrlarning oshirib aytilganini isbotladi.

²⁶ Political and economic Trends in Central Asia. Edited by Akiner Sh. – London: British Academic Press, 1994; Roy O. The New Central Asia. The Creation of Nations. – London, New York, 2000; Frederick S. Starr, Filat Yildiz, Martina Reiser etc. The New Silk roads: transport and trade in Greater Central Asia. / Monograph. Central Asia-Caucasus institute & Silk Road Studies Program. – Washington, D.C.: Johns Hopkins University-SAIS, 2007. – 514 p; Khalid Adeeb. Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR. Cornell University Press. 2015; Micklin P., Aladin N., Plotnikov I., The Aral Sea. The Devastation and Partial Rehabilitation of a Great Lake. Berlin. Springer Heildelberg, 2014; Oke M.K. (ed.). Gegis siirecinde Orta Asya Turk Cumhuriyetleri. – Istanbul: Alfa, 1999; Балчи Б. Транзит – стабилизирующий фактор // Узбекистан и Центральная Азия. 2007. – № 10; Сянпин Ч. Новый трансазиатский мост. – Москва, 2006.

1877-yili iyunda Orenburg general-gubernatori general-adyutant N.A.Kriyanovskiy Ulug' Knyaz Nikolay Konstantinovichga hukumat muhandislari bosib o'tgan O'rta Osiyo yo'nalishida qurish nazarda tutilgan relslar yo'li bo'yicha joylarni tekshirish, sharoitga mos qo'shimchalar va o'zgarishlar kiritish va xulosalarni taklif qilishni topshiradi²⁷.

O'rta Osiyoda temir yo'l qurilishi bo'yicha eng yaxshi yo'nalishlarni aniqlash uchun Rossiya hukumati buyrug'i bilan 1877, 1878, 1879-yillari tashkil etilgan ilmiy ekspeditsiyalar Toshkent – Orenburg yo'nalishi bo'yicha temir yo'l qurish zarur degan xulosaga keldi.

1899-1900-yillari O'rta Osiyoga temir yo'l qurish bo'yicha ikkita magistral yo'nalishning loyihasi tahlil qilindi: Orenburg –Toshkent va Aleksandrov Gay-Xiva- Chorjo'y. So'nggi loyihaning foydali tomonlari haqida Guryev yonida neft koni topilgandan so'ng gapirila boshlandi. Hukumat birinchi navbatda Orenburgdan Toshkentgacha temir yo'lni qurish tarafdori bo'ldi. Bu yo'lning loyihasi Aleksandrov Gay – Xiva – Chorjo'y temir yo'lni qurish bo'yicha loyihaga qaraganda afzallikka ega deb hisoblandi. Harbiy strategik va iqtisodiy vaziyatlar hukumatning oldiga Peterburgdan Kushkaga qadar uzluksiz harakat qiladigan va Turkiston general-gubernatorligining ma'muriy markazi Toshkent bilan to'g'ridan to'g'ri temir yo'l aloqasini ta'minlaydigan magistral yo'lni qurish zaruriyatini qo'ydi.

1880-yillari Rossiya imperiyasining Turkiston hududidagi ikkinchi Axaltekin ekspeditsiyasi Kaspiy dengizidan Qizil Arbatga qadar temir yo'l qurish zaruriyatini vujudga keltirdi. 1880-yili aprelda kelajakdagi temir yo'lning tadqiqot ishlari boshlandi. 1880-yili 9-iyunda Kaspiy dengizining sharqiy qirg'og'i- Mixaylov qo'ltig'idan suvsiz va o'tish juda qiyin bo'lgan qumli cho'l bo'lgan Mo'lla Kariga qadar temir yo'l o'tkazish haqida yuqoridan topshiriq berildi. Uzunligi 26 verst bo'lgan bu temir yo'l bo'lagi 10 kun ichida, 1880-yili 25-avgustdan 4-sentabrgacha qurildi.

Kaspiy orti harbiy temir yo'lining qurilishiga general-leytenant M.N. Annenkov rahbar etib tayinlandi. M.N.Annenkovning yordamchisi knyaz M. I. Xilkov bo'ldi. Ishlarga yo'l munosabatlari muhandisi A.I.Yugovich boshchilik qildi. Zarur tadqiqot ishlari yo'l munosabatlari muhandisi P.M.Lessar boshchiligida olib borildi²⁸.

1899-yili Kaspiy orti temir yo'lining qurilishi tamomlandi. O'rta Osiyo Rossiya bilan suv, temir yo'l va karvon yo'llari orqali aloqada bo'ldi. Xorazm vohasi, Turkmanistonning shimoliy qismi va Qoraqalpog'iston avvalgidek temir yo'ldan bir chetda qoldi.

Kaspiy orti temir yo'li, O'rta Osiyo temir yo'lga o'zgartirilib, dastlab befoyda bo'lib ko'ringani bilan, keyinchalik tez orada yirik sarmoyalar keltira boshladi. Uning qurilishi tugallangandan so'ng, birinchi yilning o'zida, 1899-yili u

²⁷ О выборе кратчайшего направления среднеазиатской железной дороги. – Оренбург, 1878. – 3 с.

²⁸ Соловьева А.М. Железнодорожный транспорт России во второй половине XIX века. – Москва, 1975. – 196 с.

bo'yicha 442. 900 yo'lovchilar va 23 262 556 pud yuklar tashildi. 10 yildan so'ng, 1909-yili, 2 981 953 odam yo'lovchilar va 69 873 364 pud yuklar tashildi.

1899-yili Chorjo'y-Qo'ng'irov-Aleksandrov Gay yo'nalishida temir yo'l qurish imkoniyatini o'rganish uchun muhandis L.A.Shtukenberg boshchiligida maxsus ekspeditsiya tashkil etildi.

Ekspeditsiyaning tarkibiga 14 nafar mutaxassislar kirgizilib, ularning ko'pchiligi temir yo'l muhandislari va texniklardan iborat bo'ldi. Ekspeditsiya katta tadqiqot ishlarini yurgizdi. Uning ko'plab yakunlari va takliflari hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. 1899-yilgi ekspeditsiyaning tarkibida Rossiya moliya ministrligining temir yo'l departamenti xodimi sifatida taniqli rus yozuvchisi va demokrati N.G.Chernyshevskiyning o'g'li – M.N.Chernyshevskiyning O'rta Osiyoga kelishi katta qiziqish paydo qilganini ta'kidlash zarur²⁹.

1899-yili 16-iyunda va 1900-yili 4-aprelda imperiya hukumatining majlisida "O'rta Osiyoga eng yaxshi temir yo'l magistralining yo'nalishi haqida"gi masala ko'rib chiqildi va uch yo'nalish bo'yicha temir yo'lning loyihalari tahlil qilindi: Sibir-Toshkent, Orenburg-Toshkent, Saratov-Chorjo'y. Birinchi yo'nalish qabul qilinmadi, sababi majlis a'zolarining fikricha, u harbiy-strategik ahamiyatga ega emas edi.

Uzoq bahslar va muhokamalardan so'ng Toshkent-Orenburg yo'nalishi qabul qilinib, uning qurilishi 1900-1905-yillari amalga oshirildi. Bu temir yo'lning quruvchilarining ko'pchiligi Rossiyaning Penza, Samara, Orenburg va boshqa guberniyalaridan ish qidirib kelgan dehqonlar va chorvadorlar bo'ldi. Orenburg-Toshkent temir yo'lning qurilishida Qoraqalpog'istondan ish qidirib borganlar ham ishtirok qilishdi. Ularning ichida Orol dengizi bo'ylaridan borgan mashhur qoraqalpoq shoiri Omar Suyirbek o'g'li ham bo'ldi³⁰.

Chorjo'y-Qo'ng'irov-Aleksandrov Gay yo'nalishi bo'yicha temir yo'l qurish masalasi bo'yicha loyihalash tadqiqot ishlari XX asrning boshida davom ettirildi. Yangi loyihalar va variantlar paydo bo'ldi. 1907-yili rus va mahalliy savdogarlar Petro-Aleksandrovskiy-Kazali temir yo'lini qurish zarurligini taklif qildi. Ular o'zlarining taklifini harakatdagi transport turlari o'sib borayotgan yuk aylanmasi talablarini to'liq ta'minlash imkoniga ega emas ekanligi bilan asosladi³¹.

A.K.Kovalevskiy Chorjo'ydan Qo'ng'irovgacha texnik tadqiqotlar olib bordi, u Qo'ng'irotdan Aleksandrov Gayga qadar yo'lni tadqiq qilishda 1899-yili olib borilgan muhandis Shtukenbergning tadqiqotlarining yakunlari bilan cheklandi. U bu ekspeditsiyada Ustyurtdan Embaga qadar suv bilan ta'minlash manbalarinigina tadqiq qildi³².

1914-yili aprelda muhandis Kandaurov boshchiligida tadbirkorlar guruhi Aloqa yo'llari vazirligiga taklif bilan chiqdi. Ular Aleksandrov Gay-Chorjo'y temir yo'l yo'nalishini qurmoqchi bo'ldi. 1915-1917-yillardagi tadqiqot ishlarining

²⁹ Чернышевская М.Н. Семья Н.Г.Чернышевского. – Саратов, 1980. – 84 с.

³⁰ Пирназаров А. Омар шайырдың творчествосы. – Нукус, 1975. – 32 б.

³¹ Записка к проекту Хивинской железной дороги. – Петроград, 1915. – 52 с.

³² Ўша жойда.

rejasida bu yo'lni tadqiq qilish uchun 1915-yil davomida kredit olish nazarda tutildi³³. Bundan so'ng u Xiva xonligiga relslar yo'lini o'tkazish, mo'l suvli Amudaryo va issiq iqlim paxtachilikning rivojlanishiga qulay sharoit yaratib beradi, deb ko'rsatadi.

1913-yili muhandis V.A.Yasino Kaspiy-Orol temir yo'lining loyihasini ishlab chiqadi. 1913-yili Shtukenberg, Kashin va Sermyakin boshchiligidagi muhandislar guruhi Orol Kaspiy temir yo'lini qurishning loyihasini tayyorlaydi.

Xiva temir yo'lining qurilishi atrofidagi kurash ayrim tadbirkorlar guruhlari orasida bo'lib o'tdi. Ularning har biri bu foydali ishni o'z qo'llariga olishga intildi. Bunday guruhlar beshta bo'ldi-Kovalevskiy, Nikolayevskiy-Brikelmeyer, Ryazan-Ural temir yo'l jamiyati, Shtukenberg kompaniyasi va Gusakov-Emelyanov kompaniyasi. Bu loyihalarning hech qaysisi podsho Rossiyasi davrida amalga oshirilmadi. Uning o'sha paytda amalga oshirilmaganligi mablag' masalasi bilan birga, siyosiy va harbiy holatga ham aloqador bo'ldi.

Rossiya imperiyasi davrida Qoraqalpog'iston va Xorazm orqali O'rta Osiyoni Rossiya bilan ulovchi temir yo'l qurish masalasi bo'yicha ko'plab ilmiy ekspeditsiyalarning tashkillashtirilishi, ularning texnik-iqtisodiy izlanishlari, har xil tayyorlangan variantlar o'sha davrda ish yuzida amalga oshirilmagani bilan kelajak tadqiqot ishlarini davom ettirishda va keyinchalik Chorjo'y-Qo'ng'iro't, Qo'ng'iro't-Beynov va boshqa temir yo'llarning loyihalash tadqiqot ishlarida, texnik hujjatlarni tayyorlashda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

“1920-1960-yillarda Chorjo'y-Qo'ng'iro't temir yo'lining qurilishi” deb nomlangan uchinchi bobda Chorjo'y-Qo'ng'iro't temir yo'li qurishning loyihalashtirilishi, dastlabki say-harakatlar va ushbu yo'l qurilishining amalga oshirilishi jarayoni ochib berilgan. XX asrning 20-30-yillari qoraqalpoq xalqining kelajak taqdiri haqida bahs bo'layotgan paytda yo'l aloqasi masalasi dolzarb muammolardan biri sifatida kun tartibiga qo'yildi.

1924-yili 14-oktabrda SSSR markaziy ijro qo'mitasi Rossiya Federatsiyasining tarkibidagi Qozog'iston avtonom Respublikasiga kiruvchi Qoraqalpog'iston avtonom viloyatining tashkil etilishi haqidagi qarorni tasdiqladi³⁴. 1930-yili Qoraqalpog'istonning RSFSR tarkibiga kirishi, 1932-yili muxtor Respublika bo'lib qayta tashkil etilishi va xalq xo'jaligining rivojlanishi transport tarmoqlariga bo'lgan talabni yanada oshirdi.

Yo'l aloqalaridagi bunday vaziyatlar respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, siyosiy rivojlanishiga to'siq bo'ldi. U davrda yuk faqat Amudaryo orqali tashiladigan bo'lganligi tufayli daryoning qaytgan davrida, qishki-bahorgi tahlikali vaziyatlarda yo'l aloqasi butunlay to'xtab, Qoraqalpog'istonga zarur bo'lgan yuklar, qishloq xo'jalik vositalari, qurilish materiallari o'z vaqtida olib kelinmadi. Bu to'siqdan xalos bo'lishning yagona chorasi temir yo'lni qurish edi.

1947-yili 21-fevralda bo'lib o'tgan SSSR Oliy Soveti sessiyasi ishtirokchilari: “Qoraqalpog'iston ASSR va Xorazm oblastining iqtisodiyotini va madaniyatini tez

³³ Ахмеджанова З.К. Железнодорожное строительство в Средней Азии... – Ташкент., 1984. – 66 с.

³⁴ Қарақалпақстанның жаңа тарийхы. Қарақалпақстан XIX әсирдің екінши ярымынан XXI әсирдің басына шекем. – Нукус: «Қарақалпақстан», 2003. – 207 с.

orada yuqori ko‘tarish uchun bu tumanlarni asosiy temir yo‘l magistrali bilan ulovchi temir yo‘lni qurish zarur”³⁵, deb ta’kidlaydi.

1947-yili 28-iyulda SSSR Vazirlar Soveti “Chorjo‘y-Qo‘ng‘irot temir yo‘lini qurish haqida”³⁶ Qaror qabul qildi. Uning qurilishi SSSR xalq xo‘jaligini qayta tiklashning va bundan buyon rivojlantirishning “to‘rtinchi besh yillik” deb atalgan rejasiga kiritildi.

Yangi temir yo‘l trassasi bo‘yicha Dneprotransproekt ekspeditsiyasi tomonidan 1947-yili 20-aprelda o‘rganish ishlari boshlandi va iyul oyida 627 km trassa bo‘yicha ishlar tugallandi.

SSSR Vazirlar Sovetining 1947-yil 28-iyuldagi “Chorjo‘y-Qo‘ng‘irot temir yo‘lini qurish haqida” gi qarorida temir yo‘l magistralining birinchi navbati Chorjo‘y-Toshsaka oralig‘ida amalga oshirish nazarda tutilgan edi. Biroq keyingi texnik o‘rganish paytida, qurilishi kerak bo‘lgan temir yo‘l magistralining yakunlovchi yo‘li-Toshsaka trassasining asosiy yo‘nalishlaridan bir chetda qolib ketdi. Shunga bog‘liq O‘zbekiston va Turkmaniston respublikalari tashkilotlari temir yo‘lni Chorjo‘y-Qo‘ng‘irot-Aleksandrov-Gay trassasining 400 kilometrda joylashgan Xorazm oblastining markazi- Urganch shahrigacha yetkazish haqida qaror qabul qildi³⁷.

Chorjo‘y-Qo‘ng‘irot temir yo‘li qurilishining tayyorgarlik ishlari va amalga oshirilishida Turkmaniston, O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalqlari faol ishtirok etdi.

O‘zbekiston hukumati 1947-yili 11-avgustda qabul qilgan “Chorjo‘y – Qo‘ng‘irot temir yo‘lining qurilishi haqida” gi qarorida qurilishning polotnosiga tuproq yig‘ish ishlarining kuz va qish oylarida amalga oshirilishi qo‘shimcha qiyinchilik paydo qilishini hisobga olib, yer qazish ishlarini bajarishni 1947-yili Umumxalq qurilish usuli bilan amalga oshirish zarur”³⁸-deb ko‘rsatdi. Bunda 1947-yilning sentabr oyidan boshlab Xorazm oblastidan 26 ming odam, Qoraqalpog‘istondan 20 ming odam temir yo‘l liniyasining polotnosiga tuproq yig‘ish ishlarida ishtirok etishi nazarda tutildi. Umumxalq qurilishida Xorazm oblasti 168 km. masofada 2 mln. kub metr, Qoraqalpog‘iston ASSRda 75,2 km masofada 1,5 mln. kub. metr hajmdagi ishni bajarishi kerak bo‘ldi³⁹.

Qoraqalpog‘istondan 350-400 km. masofada joylashgan temir yo‘l trassasiga kolxozchilarni va ularning oziq-ovqatlarini, qurol-aslahalarini yetkazish ancha kuchni talab etdi. Bunda kolxozchilarning o‘z transportlari bilan birga 110 dan ortiq avtomashinalar, besh kater va boshqalardan foydalanildi.

Chorjo‘y-Qo‘ng‘irot temir yo‘l magistrali haqiqiy ma’noda umumxalq qurilishining yuksak na‘munasi bo‘lib, uning tayyorgarlik jarayonida va muvaffaqiyatli amalga oshirilishida Qoraqalpog‘iston ASSR ning o‘sha davrdagi rahbarlari Mateke Djumanazarov, Nau‘riz Japaqov, Pirjan Seitov va boshqalarning xizmatlari alohida bo‘lganini aytib o‘tish zarur. Ular oliyjanob va haqiqiy jonkuyar

³⁵ «Известия» газетаси. 1947 йил, 22 феврал.

³⁶ Россия халқ хўжалиги МДА, 1884-фонд, 103-рўйхат, 59-йиғмажилд, 3-варақ.

³⁷ Россия халқ хўжалиги архиви, 1884-фонд, 80-рўйхат, 1867-йиғмажилд, 103-варақ.

³⁸ Ўзбекистон Миллий архиви, 837-фонд, 33-рўйхат, 2982-йиғмажилд, 358-варақ.

³⁹ Ўзбекистон Миллий архиви, 837-фонд, 33-рўйхат, 2982-йиғмажилд, 358-варақ.

rahbarlardan bo‘lib, temir yo‘l qurilishiga bog‘liq tezda hal bo‘lishi kerak bo‘lgan vazifalarni amalga oshirishda iqtidorlilik, qaysarlik, ishchanlik va tezkorlilik bilan harakat qildi. Vaqt bilan hisoblashmasdan, ular qurilishning eng hal qiluvchi paytlarida umumxalq qurilish shtabida bo‘lib, ularning qamish chaylalarida tunab, quruvchilarga tibbiy, hayotiy va madaniy xizmatlar ko‘rsatish, qurilish materiallarini, texnikalar, asbob-uskunalarni yetkazib berish va boshqa zarur ishlarga bevosita boshchilik qildi.

Umumxalq ishiga aylangan Chorjo‘y-Qo‘ng‘irot temir yo‘lini qurishda o‘zbek, turkman va qoraqalpoq xalqlariga RSFSR va boshqa respublikalar har tomonlama yordam berdi⁴⁰. Masalan, Ural ishchilari va boshqa sanoat markazlari yangi temir yo‘l uchun relslar, teplovozarlar va vagonlar yetkazib berib turdi. Temir yo‘l quruvchilari uchun Moskvadan tunuka, temir va mixlar, Brest-Litovsk temir yo‘lidan relslar, Irkutskdan va Kurgandan yog‘ochlar, Tomsk temir yo‘lidan shpallar olib kelindi. 1948-yilning yanvaridan may oyining boshigacha Toshkent zavodidan 635 ta vagon shpallar Chorjo‘y-Qo‘ng‘irot temir yo‘lining qurilishiga yuborildi⁴¹.

1947-yil sentabr oxirida Qoraqalpog‘iston ASSR ning 100 dan ortiq kolxozlari temir yo‘l polotnosiga tuproq uyish ishlarini yakunladi. Shu yilning 25-sentabriga qadar 3288 nafar kishi qurilishdan o‘zlarining tumanlariga qaytdi⁴².

1947-yili oktabr boshidan boshlab temir yo‘l polotnosining mahkamlash ishlariga kolxozchilar ko‘plab jalb qilindi. 2-oktabrda Qoraqalpog‘iston uchastkasida 12480 kolxozchining 8120 nafar odami mahkamlash ishlarida band bo‘ldi⁴³.

Chorjo‘y-Qo‘ng‘irot temir yo‘lining quruvchilarining fidokorona mehnatlari natijasida Chorjo‘y-Urganch oralig‘idagi 400 kilometrlik liniyaning tuproq uyish va mahkamlash ishlari 1947-yili 25-avgust va 25-oktabr oralig‘ida yakunlandi. Bu ishlangan ishlar qurilishning umumiy bahosining 30 foizini tashkil qildi. Bu Turkmaniston, O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston kolxozchilarining umumiy bir maqsad bilan Amudaryoning quyi tomonidagi xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotini yuqori ko‘tarish uchun olib borilgan birgalikdagi harakatlarning natijasida amalga oshirildi. Bunday qisqa vaqt ichida trassa polotnosiga tuproq uyish va mahkamlash ishlarining yakunlanishi xalqona qurilish usulining ahamiyati, hayotiyliigi va uning ajoyib kuchga ega ekanligini namoyish etdi.

1951-yili temir yo‘l va Bosh Turkman kanalining qurilishlarining olib borilishi bilan Taxiatosh yonida yangi makon paydo bo‘ldi. Avval cho‘lu biyobon bo‘lgan bu yerda ko‘p sonli aholi yashovchi poselka bo‘y tikladi. Taxiatosh GESi va gidrouzelining qurilishi va boshqa sanoat korxonalarining paydo bo‘lishi bilan u yirik shaharlarning biriga aylandi.

⁴⁰ Ўзбекистон Миллий архиви, 837-фонд, 33-рўйхат, 2982-йиғмажилд, 50-варақ.

⁴¹ Россия Халқ хўжалик марказий давлат архиви, 1884-фонд, 80-рўйхат, 1867-йиғмажилд, 103-варақ.

⁴² Победители возвращаются домой // «Советская Каракалпакия» газетаси. №190 (4219). 1947 йил, 27 сентябр.

⁴³ Трудовой дневник. «Советская Каракалпакия» газетаси. №195 (4224). 1947 йил. 4 октябр.

1952-yili 23-iyunda Taxiatoshga birinchi poyezd keldi. Mashinist Yefimenkoning boshqaruvidagi birinchi poyezd bilan Taxiatosh gidrouzeliga besh vagon Sibir yog‘ochi, Farg‘onadan 31 ta vagon tosh ko‘mir olib kelindi⁴⁴.

1952-yil 15-iyul Qoraqalpog‘iston xalqlari uchun eng muhim sanalardan biri sifatida tarix sahifalarida qoldi. Ushbu tarixiy kunda Xo‘jayli shahriga birinchi poyezd keldi.

SSSR Ministrlar Sovetining 1947-yili 28-iyuldagi qarori asosida Xo‘jayli-Qo‘ng‘irot uchastkasida temir yo‘l liniyasining qurilishi davom ettirildi. Chorjo‘y-Qo‘ng‘irot temir yo‘lining loyihalash-smetalik hujjatlari va ishchi chizmalari “Dneprogiprotrans” loyihalash instituti tomonidan ishlab chiqilgan va SSSR Aloqa yo‘llari vazirligi tomonidan 1953-yili 10-fevralda tasdiqlandi⁴⁵. Bu temir yo‘l liniyasining uzunligi 87, 3 km. bo‘lib, Chorjo‘y-Qo‘ng‘irot trassasining yakunlovchi uchastkasi bo‘ldi. Qurilishning umumiy bahosi 113 mln. rubl mablag‘ni tashkil qildi⁴⁶.

1955-yili Chorjo‘y-Qo‘ng‘irot temir yo‘lining qurilishi tugallandi. Shu yilning 30-iyun sanasi Chorjo‘y-Qo‘ng‘irot magistralining eng so‘nggi relslar zvenosi qo‘yilgan kun sifatida temir yo‘l qurilishi tarixiga kirdi. Trassaning eng so‘nggi relslar zvenosini yo‘lga to‘shash X.Bobojonov boshchiligidagi brigadaning a‘zolari tomonidan amalga oshirildi.

1955-yildan boshlab Toshkent va Qo‘ng‘irot o‘rtasida yo‘lovchi poyezdlar qatnay boshladi va u yo‘lovchilarni tashishni rivojlantirish bilan birga, aholiga transport xizmatini yaxshilash imkonini berdi.

Chorjo‘y-Qo‘ng‘irot temir yo‘lining butun quyi Amudaryo xalq xo‘jalik kompleksi uchun ahamiyati faqat shu bilan cheklanmaydi. Temir yo‘l qurilishi Qoraqalpog‘istonning ko‘plab aholisi uchun muhim kasbiy maktab va temir yo‘lchi malakali mutaxassislarni tayyorlashning haqiqiy ustaxonasiga aylandi.

“1960-1990-yillarda Janubiy Orol hududida temir yo‘llar qurilishining olib borilishi” deb nomlangan 4-bobda 1960-1990-yillarda Janubiy Orol hududida temir yo‘llar qurilishining davom ettirilishi, Taxiatosh-Nukus-Chimboy temir yo‘lining qurilishining amalga oshirilishi jarayonlari tahlil etilgan. Chorjo‘y-Aleksandrov Gay magistralining qurilishini bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadida 1962-yili dekabrda Aloqa yo‘llari vazirligi “Mosgiprotrans”ga yangi Qo‘ng‘irot-Beynov temir yo‘l yo‘nalishining qurilishi bo‘yicha loyihalash topshirig‘ini ishlab chiqishni topshirdi.

Qo‘ng‘irot-Beynov temir yo‘l qurilishining loyihalash topshirig‘i 1966-yili oktabrda tasdiqlandi. “Mosgiprotrans” qurilishning texnik hujjatlarini qisqa muddatda ta‘minlashi zarur bo‘ldi, sababi transport qurilishi vazirligining qurilish muassasalari kelib boshlagan edi.

Tadqiqotchilar va loyihalovchilarning samarali ishlari natijasida loyihalash topshirig‘i ishlab chiqilgan paytning o‘zidayoq bu vazifa muvaffaqiyatli bajarildi.

⁴⁴ Жапаков Н. Железная дорога в Каракалпакии // «Советская Каракалпакия» газетаси. №138 (5454). 1952 йил. 15 июл.

⁴⁵ Россия Халқ хўжалик марказий давлат архиви, 1884-фонд, 103-рўйхат, 59-йиғмажилд, 15-варак.

⁴⁶ Ўша жойда.

Loyiha tasdiqlanmasdan avvaldanoq, 1966-yili mayda tadqiqotchilar trassada ishni boshladi va o'sha yilning avgust oyida yangi trassaning 100 km.i qurilishga tayyor bo'ldi⁴⁷.

Ustyurt orqali O'rta Osiyoni Rossiya bilan bog'lagan Qo'ng'irot- Beynov temir yo'lining qurilishi 1967-1972-yillar oralig'ida amalga oshirildi. Qo'ng'irot- Beynov temir yo'lining qurilish ishlarining muvaffaqiyatli yakunlanishida deyarli bir asr davomida tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan loyihalash ishlari, texnik hujjatlar, chizmalar va loyihalar tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi.

Qo'ng'irot-Beynov temir yo'lining qurilishi SSSR Vazirlar Sovetining 1966-yili 20-noyabrdagi 2696-qarori asosida amalga oshirildi⁴⁸.

1968-yili iyunning boshida quruvchilar Qoraqalpog'iston va Qozog'iston respublikalarining chegarasiga yaqinlab keldi. Bu qardosh ikki respublikaning kesishgan yerida "Karakalpakiya" deb atalgan yangi stansiya paydo bo'ldi. U vaqtlari "Karakalpakiya" stansiyasida bitta ham uy yoki daraxt bo'lmadi, ya'ni yalanglik edi. A.K. Kartunov tomonidan 1967-yili "Nedra" nashriyotidan chiqarilgan "Gazovaya promishlennost SSSR" kitobida Ustyurt haqida shunday deb yozilgan edi: «Ustyurt tekisligida el-yurt yo'q. Ichimlik suv to'lig'i bilan yo'q. Faqat avtomobil bilan eskirgan yo'llarda harakat qilish mumkin⁴⁹.

Qurilishning muvaffaqiyatli olib borilishida eng bosh omillardan biri yo'lni qurishda qatnashgan qardosh xalqlarning do'stligi va bir-biriga yordamga kelishi bo'ldi. Qo'ng'irot- Beynov temir yo'li boshlangan vaqtidan boshlab "do'stlik yo'li" deb e'lon qilindi, uning qurilishida 40 dan ortiq millat vakillari ishtirok etdi. Bu yerda rus va o'zbeklar, tatarlar va turkmanlar, qozoqlar va qoraqalpoqlar va boshqa ko'plab millat vakillari birlikda va hamjihatlikda mehnat qilib, xalqlar do'stligining qudratli kuchining qanchalik ulug' ekanligini amalda ko'rsatdi⁵⁰.

Chorjo'y-Qo'ng'irot va Qo'ng'irot-Beynov temir yo'l magistrallarining qurilishining yakunlanishi Amudaryoning quyi tomoni va chap yoqalik Qoraqalpog'istonning iqtisodiyoti va madaniyatini tez yuqori ko'tarishga imkon berdi, bu yerda ishlab chiqaruvchi kuchlarning jadal ravishda bundan buyon rivojlanishiga ishonchli shart-sharoitlar yaratildi.

Lekin o'ng qirg'oqdagi Qoraqalpog'istonda temir yo'l aloqasining bo'lmaganligi sababli respublikada transport muammosi to'liq hal qilindi deb aytish qiyin, o'lkaning bu bo'limida yuklarni tashish asosan avtomobil transporti orqali amalga oshirildi. Amudaryo orqali ko'priknig bo'lmasligi avtomobil bilan yuklarni tashishni ham qiyinlashtirdi. Bu respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sirini o'tkazdi, xalq xo'jalik yuklarini: sanoat va oziq-ovqat tovarlarini olib kelishni murakkablashtirdi va natijada bunday holat Qoraqalpog'istonning o'ng qirg'oq tumanlarida sanoat va qishloq xo'jaligini bundan buyon jadallashtirishga kuchli to'sqinlik qildi.

⁴⁷ Қоңыраттан Бейнеўге қарай. «Совет Қарақалпақстаны» газетаси. №121 (9709). 1967 йил, 20 июн.

⁴⁸ Россия Халқ хўжалик марказий давлат архиви, 1884-фонд, 103-рўйхат, 186-йифмажилд, 121-варак.

⁴⁹ Картунов А.К. Газовая промышленность СССР. – Москва, 1967. –261 с.

⁵⁰ Романенко А. Кунград – связующее звено // «Советская Каракалпакия» газетаси. №47 (10006). 1970 йил. 7 март.

Qoraqalpog‘iston ASSRning 13 ta ma‘muriy tumanlaridan 9 ta, shuning ichida respublika poytaxti Nukus shahri o‘ng yoqalikda joylashdi⁵¹. Temir yo‘lining bo‘lmasligi shaharda ko‘plab yirik ma‘muriy imoratlarning, sanoat va turar joylarning qurilishini amalga oshirishda, poytaxt aholisining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot darajasini yuqori ko‘tarishda anchagina qiyinchiliklarni keltirib chiqardi.

O‘ng yoqalik tumanlarda respublikaning ko‘plab yirik korxonalari to‘plandi, umumiy aholining 60 %i istiqomat qildi, barcha ekin maydonining 61%i ishlandi, yirik qora mollarning 56 %i boqildi. Respublikaning 8 ta paxta tozalash zavodlaridan 5 tasi chap yoqalikda harakat qilib, ularning unumdorligi yil sayin o‘sib bordi.

Ishlab chiqarish bazasining va temir yo‘l transportining bo‘lmaganligi sababli o‘sha yillari Amudaryoning o‘ng yoqaligida joylashgan Sultonuvaystog‘ karyeridagi tugamas xazinalar, foydali qazilma boyliklar xo‘jalik manfaatlari uchun foydalanilmadi. Bu yerdan qurilish materiallarini avtomobil transporti orqali tashish anchagina qimmatga tushdi. Shu sababli respublika bo‘yicha Sultonuvaystog‘ karyeridan qurilish materiallarini yetkazib berish va 1960-yillari ularni tashqaridan olib kelish sababli Amudaryoning o‘ng yoqalig‘iga temir yo‘lni o‘tkazish hayotiy zaruriyat sifatida pishib etildi.

Nukus shahrini markaziy o‘lkalar bilan temir yo‘l orqali bog‘lash masalasi XX asrning 30-yillaridan boshlab ko‘tarila boshladi. RSFSR Xalq Komissarlar Soveti tomonidan 1931-yili 1-avgustda qabul qilingan qarorda “Nukus-Orol dengizi temir yo‘lining qurilishini tezlatish va uni 1932-yili bitirish”⁵² vazifa etib qo‘yilgan edi. Bu qaror amalga oshirilmadi.

Bu masala 1940-yillarning oxirida Qoraqalpog‘iston hukumati tomonidan qaytadan ko‘tarildi. Respublika Vazirlar Kengashining 1949-yil 10-dekabrdagi majlisida “Nukus shahrining bosh rejasini va uning taraqqiyotining texnik-iqtisodiy asoslarini tasdiqlash haqida”gi qaror qabul qilindi. Bu qarorda “shaharning sharqiy bo‘limida temir yo‘l stansiyasini qurish imkoniyatini hisobga olish” zarurligi ta’kidlab o‘tildi⁵³.

1969-yili 12-martda SSSR Vazirlar Sovetining ishlarini yurgizuvchi Polyanskiy “SSSR Gosplani boshlig‘i Isayev va SSSR Aloqa yo‘llari vaziri B.Beshevga Sh.R.Rashidov tomonidan qo‘yilgan Taxiatosh-Nukus temir yo‘lini loyihalash masalasini ko‘rib chiqish va uning loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlashni topshirdi”⁵⁴.

1972-yili Toshgiprotrans loyihalash institutining mutaxassislar guruhi Taxiatosh- Nukus yo‘nalishida izlanish olib bordi. Bu ishlarga guruhning rahbari V.R.Ruziyev, loyihaning bosh muhandislari S.S.Moskalenko va L.B.Drapkin

⁵¹ Материалы по производительным силам Узбекистана. Вып. 12. Современное состояние и перспективы развития промышленности и транспортанизовьев Амударьи (ККАССР и Хорезмская область). – Ташкент, 1959. –164 с.

⁵² Коновалов и Данилов. Дорожное строительство Каракалпакской автономной области // «Дорога и автомобиль». № 5-6. – Москва, 1932. – 102 с.

⁵³ Қорақалпоғистон Республикаси Марказий Давлат архиви, 322-фонд, 1-рўйхат, 1427-йиғмажилд, 81-варак.

⁵⁴ Ўзбекистон Миллий архиви, 837-фонд, 41-рўйхат, 668-йиғмажилд, 64-варак.

boshchilik qildi. 1973-yili bu magistralning texnik loyihasi SSSR Aloqa yo'llari vazirligi tomonidan tasdiqlandi⁵⁵.

1974-yili 4-fevralda SSSR Vazirlar Soveti "Taxiatosh-Nukus temir yo'lining qurilishi haqida" qaror qabul qildi⁵⁶.

Umumxalq qurilish uchun zarur qurilish materiallari, asbob-uskunalar, mexanizmlar va boshqalar RSFSR va Ukrainaning zavodlaridan doimiy ravishda yetkazib turildi.

Qurilishda sobiq SSSRning barcha respublikalarining vakillari ishtirok qilishdi. Temir yo'l polotnosiga tuproq uyish ishlari bilan Qozog'istonning Mang'ishloq shahridan 66, Navoiy shahridan 13-mexanizatsiyalashgan kolonnalarning jamoalari shug'ullandi. Yangi temir yo'l qurilishining yer qazish ishlari 1974-yili 20-martda usta I.A.Polyakov boshchiligidagi 66-mexanizatsiyalashgan kolonnaning jamoasi tomonidan boshlandi. Bu jamoaning a'zolari Qo'ng'irot-Beynov, Guryev-Astraxan, Makat-Mang'ishloq, Mang'ishloq-Uzen, Navoiy va Uchquduq temir yo'l magistrallarining qurilishida to'plagan boy tajribalarga ega edi. Shu sababli ular qisqa vaqt ichida kelajak trassani tez o'rgandi, yer-qazish texnikalarini ishlash holatiga keltirdi va ishni bajarishga kirishdi.

Taxiatosh-Nukus temir yo'lining quruvchilari 1974-yili 20-martdan oktabrning oxirigacha quyidagi hajmda ishlarni bajardi: 570 ming kubmetr yer qazish ishlari ishlandi, 6 ta ko'prik yo'lakchalari va 2 ta sun'iy qurilmalar qurildi, 6,7 km. yo'l to'shaldi⁵⁷.

Qurilishning sur'atini tezlatishda umumxalq tusga ega bo'lishi muhim rolni o'ynadi. Respublikaning deyarli barcha korxonalari va tashkilotlari qurilishni zarur moddiy-texnik, odam va boshqa resurslar bilan ta'minlashda o'zlarining hissalarini qo'shdi. Qoraqalpog'iston ASSR savdo vazirligi va "Taxiatashenergostroy" boshqarmasiga qarashli ORS mahkamasi quruvchilarni sanoat va oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minladi. Nukus va Taxiatosh shahar Ijro Qo'mitalari 260-qurilish montaj poyezdi quruvchilari uchun Nukus shahrida to'rt ikki xonali kvartira va Taxiatosh shahrida 50 kishilik yotoqxonani ajratdi. Qoraqalpog'iston davlat musiqali drama va komediya teatri jamoasi quruvchilarga madaniy tomondan xizmat qildi.

Trassada qatnashgan 260-qurilish montaj poyezdi, 14-ko'prik quruvchilar otryadi va boshqa qurilish tashkilotlarining quruvchilarining fidokorona mehnatlari natijasida 1974-yili dekabrning oxirida Taxiatosh-Nukus temir yo'lining qurilishi yakunlandi. Bu liniyaning qurilishi hammasi bo'lib 9 oy ichida bitkazildi. 1974-yil 22-dekabr Taxiatosh-Nukus temir yo'li bo'yicha poytaxt Nukus shahriga dastlabki ishchi poyezdi qadam qo'ygan kun sifatida Qoraqalpog'iston tarixida qoldi.

1975-yili Taxiatosh-Nukus temir yo'li doimiy foydalanishga topshirildi. U haqiqiy ma'noda muhim hayot arteriyasi bo'lib, Amudaryoning chap va o'ng

⁵⁵ Такыятас-Нөкис жолы – дослық хэм бахыт жолы. «Совет Каракалпакстаны» газетаси. №252 (11539). 1974 йил. 24 декабр.

⁵⁶ Ўзбекистон Миллий архиви, 608-фонд, 9-рўйхат, 1909-иш, 60-варак.

⁵⁷ Остролуцкий В. Железнодорожная магистраль Тахиаташ-Нукус – в строю. «Советская Каракалпакия» газетаси. №252 (11241). 1974 йил. 24 декабр.

yoqaligida barqaror aloqani ta'minladi, xalq xo'jaligining bundan buyon jadal rivojlanishida katta rolni bajardi va hozir ham bajarib kelmoqda.

Yangi temir yo'l magistralining qurilishi Amudaryoning o'ng yoqaligiga, avvalambor respublika poytaxti Nukus shahrining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotini rivojlantirishda katta ta'siri bo'lganini aytib o'tish zarur. Temir yo'l kelishi bilan shaharda yirik sanoat obyektlarining qurilishi kengaydi. 1979-yili Nukus shahrida 30 ta sanoat korxonalarini bo'lib, ular respublika sanoat mahsuloti hajmining 20% ini tashkil qildi⁵⁸. Ularning safiga yirik sanoat korxonalaridan Nukus mebel fabrikasi, un kombinati, yog'-sut kombinati, granit-marmar zavodlari va boshqalar kirdi.

Taxiatosh-Nukus-Chimboy temir yo'lining bitkazilishi respublikaning shimoliy tumanlarining kelajak rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochib berdi. Bu yo'l janubda Nukus - Sultonuvaystog' - To'rtko'l - Uchquduq yo'nalishida mustaqillik yillari davom ettirildi. Taxiatosh-Nukus, Nukus-Chimboy, Nukus-Sultonuvaystog' va Nukus-Miskin-Uchquduq temir yo'llarining muvaffaqiyatli bitkazilishi respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar ochib bermoqda. Bugungi kuni respublikamiz hududi, uning poytaxti Nukus shahri O'rta Osiyodan Yevropaga chiqadigan temir yo'llarning chorrahasida joylashgan o'lkaga aylandi.

“Mustaqillik yillari Janubiy Orol hududida temir yo'llar qurilishining davom ettirilishi (1991-2021 yy.)” deb nomlangan beshinchi bobda mustaqillik yillari transport sohasida olib borilgan yangi siyosat va Janubiy Orol hududida temir yo'llar qurilishi, respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy va strategik rivojlanishida temir yo'l transportining tutgan o'rni tahlil etilgan.

Temir yo'l transporti xohlagan elning iqtisodiyotini qon tomiri hisoblanadi. Respublika uchun bu ayniqsa, muhim, sababi temir yo'l transporti respublikani jahon iqtisodiyoti bilan bog'lovchi asosiy bo'g'in hisoblanadi. Bugungi kunda temir yo'l orqali davlatning yuk aylanmasining 66 foizga yaqini va eksport, import yuk tashuvchilarning umumiy hajmining deyarli 80 foizi amalga oshirilmoqda.

1992-yili 1-yanvarda sobiq SSSR yo'l qurilish Vazirligiga qarashli O'rta Osiyo temir yo'l bo'limi Orol bo'yi temir yo'li sifatida qayta tashkil etildi, uning qaramog'iga Xorazm viloyati, Qoraqalpog'iston hududidagi 59 ta stansiya, razyezd bo'limlari va 16 ta korxonalar berildi⁵⁹.

Mustaqillik yillaridagi erkinlik sobiq sovetlar ittifoqidagi barcha respublikalarga ham davlatlararo munosabatda bozor iqtisodiyoti siyosatining qonuniyligining ustunlik tomonlarini ko'rsata boshladi. Qoraqalpog'iston va Xorazm viloyatiga temir yo'l transporti bilan keladigan yuklar Turkmaniston hududi orqali o'tar edi. Xalqaro qoidalarga binoan o'sha hududdan o'tuvchi har bir vagonga valyuta to'lash yo'li bilan avval kod (ruxsatnoma) olish va uni o'tkazgani uchun anchagina miqdorda valyuta to'lash masalalari bir qancha muammolarni tug'dirdi. Shu sababli ham temir yo'l transportini rivojlantirishning umumiy

⁵⁸ Татыбаева В.Х. Нукус-столица ККАССР (история основания города). – Нукус, 1979. – 68 с.

⁵⁹ Сейтимбетов М. Қарақалпақстанда темир жол қурылысының тарийхынан. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1993. 68 б.

yoʻnalishlari orasida eng dastlab ichki temir yoʻl kommunikatsiyasi tarmoqlarini kengaytirish va uni takomillashtirishga alohida eʼtibor berildi. Bu masalaning siyosiy iqtisodiy ahamiyatiga teran maʼno berib Oʻzbekiston hukumati birinchi navbatda Nukus-Sultonuvaystogʻ-Miskin-Uchquduq-Navoiy temir yoʻllari qurilishini boshlashni va ularni tez vaqt ichida bitirishni qoʻlga oldi.

Quruvchilarning mehnatdagi mardligi natijasida 1999-yilning dekabr oyining boshlarida Nukus-Sultonuvaystogʻ-Miskin uchastkalarida temir yoʻl qurilishining eng asosiy ishlari yakunlandi. Eng asosiy qurilishlardan hisoblangan Uchquduq-Miskin magistralining katta bir qismi va Toʻrtkoʻl temir yoʻl stansiyasi bitkazilib foydalanishga topshirildi. 1999-yili 16-dekabrda Toʻrtkoʻlga birinchi poyezd keldi.

Miskin-Sultonuvaystogʻ uchastkasining yoʻl qurilishi yakunlangandan soʻng 2000-yilning yanvar oyidan boshlab, Nukus-Toʻrtkoʻl oraligʻida yuk tashish poyezdlari yura boshladi. Ellikqala, Beruniy va Toʻrtkoʻl oraligʻida joylashgan xoʻjaliklar hududi orqali oʻtuvchi ushbu trassada 4 mln. 598 ming kubometrlik yer qazish va polotnaga tuproq uyish ishlari bajarildi, 115,2 km. relslar toʻshaldi, 25 ta yirik va mayda koʻpriklar, 233 ta sunʼiy suv oʻtkazgichlar qurildi. Umumiy shartnoma bahosi boʻyicha 3 milliard 619 mln. soʻm miqdoridagi ishlar bajarildi⁶⁰.

2000-yilning oxirida 226,4 kilometrlik Miskin-Uchquduq temir yoʻl uchastkasining asosiy qurilish ishlari tugatildi. Qizilqum choʻlidan qoq yorib oʻtgan Navoiy-Uchquduq Miskin-Sultonuvaystogʻ-Nukus magistrali tutashtirildi. 2001-yilning 31-yanvaridan 1-fevralga oʻtgan oqshomda Nukus-Sultonuvaystogʻ-Miskin-Uchquduq yangi temir yoʻl magistrali orqali qozonxonalar va issiqlik elektrostansiyalari uchun 30 ta sisterna yonilgʻi mazut yuklangan dastlabki poyezd Nukusdan Uchquduqqa yoʻl oldi va tongi soat 8 yarimlarda Uchquduq stansiyasiga yetib keldi⁶¹. Bu holat mustaqillik yillaridagi sohadagi dastlabki yirik yutuqlardan biri boʻldi.

Avval Nukusdan Toshkentgacha Turkmaniston orqali 1200 km yoʻl boʻlsa, Nukus-Toʻrtkoʻl-Uchquduq-Toshkent 900 km yoʻlni tashkil etdi. Butunlay bizning elimiz hududi boʻyicha oʻtuvchi bu yoʻl 2001-yili 25 million AQSH dollarini tejashga imkon berdi.

"Oʻzbekistan temir yoʻllari" aksiyadorlik jamiyatining kadrlar salohiyatini yanada mustahkamlash maqsadida, xorijning yetakchi oliy taʼlim muassasalarida kadrlar tayyorlash borasida boshqarma tomonidan tegishli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. 2005-yildan shu kunga qadar Rossiya Federatsiya va boshqa xorijiy oliy taʼlim muassasalari bilan hamkorlik Toshkent temir yoʻl muhandislari instituti orqali amalga oshirib kelindi.

2014-yili Nukus temir yoʻllari kasb-hunar kollejini 185 nafar oʻquvchi bitirdi. Kollejda 70 nafar oliy malakali oʻqituvchilar, 17 ta ishlab chiqarish amaliyoti boʻyicha masterlar mehnat qildi. Kollej bitiruvchilaridan Qoʻngʻirot temir yoʻl uzeli stansiyasi operatori Sayyora Setekova 2011-yili Nukus temir yoʻllari kasb-hunar kollejini tugatib, mutaxassisligi boʻyicha ishga joylashdi. Ushbu kollej

⁶⁰ Жаңа транспорт магистралы ашылды. «Еркин Каракалпақстан» газетаси. №15 (17452). 2001 йил, 3-феврал.

⁶¹ Жаңа транспорт магистралы ашылды. «Еркин Каракалпақстан» газетаси. №15 (17452). 2001-йил, 3-феврал.

bitiruvchisi Adilbek Sattarov Qo'ng'iro't lokomotiv deposida mashinist yordamchisi bo'lib ishga joylashdi. 2011-yili ushbu kollejni tugatgan Isatay Orazbaev Qo'ng'iro't stansiyasida navbatchi bo'lib mehnat qildi⁶².

Keyingi yillarda e'tibor berilsa, mamlakat ichki yo'llarini kapital ta'mirlash, transport oqimini hisobga olgan holda yo'l o'tkazgichlar va ko'priklar qurilishi, xalqaro yo'llarni talab darajasiga olib kelish, yo'lovchilarga xizmat qilish sifati va samaradorligini ta'minlash muammolari bosqichma-bosqich hal etilayotganini ko'rish mumkin. Mazkur ko'rsatkichlarni ijobiy tomonga o'zgartirish bugun malakali kadrlar tayyorlash tizimida katta ishlarni amalga oshirishni taqazo etmoqda⁶³.

Yurtimizda transport tizimi uchun malakali kadrlar tayyorlashning ustuvor vazifalari Prezident tomonidan Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasining to'rtinchi ustuvor yo'nalishi, 36-maqsadda aniq belgilab o'tilgan holda tizimda zamonaviy talablarga javob bera oladigan, raqobatbardosh kadrlarga e'tiborni oshirish nazarda tutilgan⁶⁴.

"O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati tasarrufida 2020-yil sentabr oyiga qadar quyidagi oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari, shuningdek, kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish markazlari faoliyat yuritdi⁶⁵.

Germaniya rivojlanish banki, Quvayt iqtisodiy rivojlanish jamg'armasi kredit mablag'lari bilan kompaniyaning o'z mablag'lari hisobidan uzunligi 114 kilometrdan iborat To'qimachi-Angren temir yo'l liniyalarining elektrlashtirilishi natijasida faqatgina dizel yonilg'isini 2,5 million AQSH dollari miqdorida tejashga erishildi. Erishilgan iqtisodiy samaradorlik yiliga 6 million AQSH dollarini tashkil qilmoqda.

Mustaqillik yillarida 640 kilometr temir yo'l ishga tushirilgan bo'lib, o'sha qatori Navoiy-Uchquduq - Sultonuvaystog' - Nukus va Toshg'uzor - Boysun-Qumqo'rg'on yo'nalishlari ham ishga tushdi. Yangi yo'nalishlarning qurilishi bilan birga mavjud temir yo'llarni elektrifikatsiyalash, modernizatsiya qilish va ta'mirlashga ham katta ahamiyat berildi.

Mustaqillik yillarida kommunikatsiya va transport, temir yo'l tizimida katta o'zgarish, yangilanishlar esa O'zbekistonning rivojlanishini yanada tezlashtirmoqda. Qamchiq dovoni orqali Farg'ona vodiysi, Navoiy - Uchquduq-Sultonuvaystog'- Nukus temir yo'li orqali shimoliy hududlar mamlakatning markaziy mintaqalari bilan bog'landi.

Mamlakatimiz Hind okeaniga chiqish, shuningdek, shimoldagi davlatlarni janubiy Osiyo davlatlari, shuningdek, Janubi-G'arbiy Osiyo davlatlariga o'tish istiqbolini yaratuvchi 75 km uzunlikdagi Xayraton-Mozori-Sharif temir yo'li 2010-

⁶² Терехина А. Чтобы путешествие было комфортным. «Учитель Узбекистана» газетаси. 2 /07/ 2015.

